



# “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

*mavzusidagi*

**ULUSLARARO ILMIY-NAZARIY KONFERANS**

*Toshkent, 2023-yil 25-26-sentabr*

## THE IMPACT OF ZAHIR AD-DIN MUHAMMAD BABUR'S LEGACY ON THE ADVANCEMENT OF EASTERN STATEHOOD AND CULTURE **INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE**

*Tashkent, September 25-26, 2023*



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ  
DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI  
RIVOJIDA TUTGAN O'RNI**

**uluslararo ilmiy-nazariy  
konferansi materiallari**

Sharq va o'zbek mumtoz she'riyatida tarixiy-afsonaviy shaxslar timsol-obrazlari talqini ham alohida qatlamni tashkil qiladi. Bu jihatlardan ham Bobur o'z lirikasida an'anaga sodiqdir. Gap shundaki, mumtoz she'riyat obraz-timsollar qatlamining ayni an'anasida asosan shohu sultonlar tarixiga murojaat etiladi. Shoh Bobur lirik she'riyatida ham bu hodisa mavjud, lekin mahsuldarlik nuqtayi nazaridan ham, tarixiy shaxslar obrazi talqini an'analari jihatlaridan ham ancha farqlidir. Unda Mahmud va Ayoz, Hofiz, Salmon yoki davr shaxslari obrazlariga ham murojaatlar ko'zga tashlanadi. Bu obrazlar orqali ham Boburmirzo o'zining dard-hasratlari, qayg'u-alamlarini nihoyatda baland ruhda samimi tasvirlab beradi.

Xulosa shundaki, Zahiriddin Muhammad Bobur ijtimoiy faoliyati bilan jahon tarixida arbob zot sifatida o'z o'rniqa ega bo'lsa, milliy ruhdagi she'riyati bilan Sharq adabiy an'analari davomchisi hisoblanadi. Shu bilan birga Bobur ijodi va uning abadiyati bilan bog'liq masalalar adabiyot ahli uchun hali ko'plab izlanishlarni talab etadi. Uning shaxsiyati va ijodiyoti o'z davri ijtimoiy va adabiy Renessansi uchun qanday xizmat qilgan bo'lsa, avlodlar va bugungi jamiyat uchun ham xuddi shunday xizmatdadir.

### **Adabiyotlar**

- Мирзиёев Ш. 2016. *Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз*. Тошкент: Ўзбекистон.
- Очилов Э. 2013. *Захириддин Муҳаммад Бобур*. Тошкент: Ўзбекистон.
- Захириддин Муҳаммад Бобур. 1994. *Девон*. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи А.Абдуғафуров. Тошкент: Фан.
- Шидфар Б.Я. 1974. *Образная система арабской классической литературы (VI-XII вв.)*. Москва: Наука.
- Куръони Карим. 1992. Ўзбекча изоҳли таржима (таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). Тошкент: Чўлпон.
- Қобилов У.У. 2021. *Нубувват ҳақиқати – бадиий ижод руҳи*. Самарқанд: СамДУ нашри.
- Ҳасанов С. 2011. *Захириддин Муҳаммад Бобур*. Тошкент: Ўзбекистон.

## **ALEKSANDR MIXAYLOVICH SHCHERBAK – “ARUZ RISOLASI”NING TADQIQOTCHISI**

Yusupova Dilnavoz Rahmonovna\*

### **Annotatsiya**

Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub “Aruz risolasi”ning turkolog olim A.M.Shcherbak tomonidan o'rganilishi bilan bog'liq masalalar tadqiq qilingan. A.Shcherbakning “Boburning aruz haqidagi risolasi” (“Сочинение Бабура об арузе”) Bobur asari ilk marta ilmiy jihatdan tahlil etilgan tadqiqot bo'lib, unda olim tadrijiylik asosida dastlab zihof, rukn, furu', so'ngra bahr, doiralar masalasiga to'xtalib o'tgan. Maqola muallifining ta'kidlashicha, garchi Shcherbak tadqiqotida ayrim bahsli o'rinalar mavjud bo'lsa-da, ushbu tadqiqot uning tilshunos va lug'atshunos olim bo'lish bilan bir qatorda, mumtoz poetikaning muhim tarmog'i bo'lgan aruz ilmi bo'yicha ham muayyan bilim va malakaga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

\* Filologiya fanlari doktori, professor, ToshDO'TAU, mumtoza\_dil@mail.ru

**Kalit so'zlar:** *risola, aruz, rukn, taqtı', bahr, doira, vazn.*

## **ALEXANDER MIKHAILOVICH SHCHERBAK – RESEARCHER OF THE “TREATISE ON ARUZ”**

### **Annotation**

The article deals with the issues related to the study of the "Treatise on Aruz" by Zahir ad-Din Mukhammad Babur by the Turkologist A.M.Shcherbak. A.Shcherbak's study "Babur's Treatise on Aruz" is the first scientific analysis of Babur's work, in which the scientist first touched on the issue of zikhaf, rukn, furu', then bakhr, concentric circles (as the types of literary art). The author of the article states that although Shcherbak's research contains some controversial points, this article shows that in addition to being a linguist and lexicologist, he has certain knowledge and skills in the field of Aruz studies.

**Key words:** *treatise, aruz (prosody), rukn (column), paradigm, bakhr (poetic meter), doira (concentric circles), vazn (poetic meter).*

### **Kirish**

Turkiy mumtoz poetika tarixida aruz ilmi va uning nazariy asoslari bilan bog'liq risolalar yetakchi o'rinni egallaydi. Shartli ravishda o'z ibtidosini Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balag'a" asari (1436/1437) orqali namoyon qilgan turkiy aruzshunoslik Zahiriddin Muhammad Boburning "Aruz risolasi" bilan yangi bosqichga ko'tarildi.

"Aruz risolasi" 1524-1525-yillarda yaratilgan bo'lib, mufassal (fanning muayyan sohasini mukammal yorituvchi monografik xarakterdagi yirik asar) uslubda bitilgan. Risola yirik antologiya yo'nalishiga ham ega. "... asarda X-XVI asrda yashagan 60 dan ortiq mashhur hamda hali bizga kam ma'lum bo'lgan shoir va olimlarning nomlari eslatiladi va ularning asarlaridan parchalar keltiriladi" [Hasanov 1981, 17]. Asarda aruzga doir ritmik unsurlar (juzv, zihof, vazn) miqdorining qolgan barcha risolalardan ko'p ekanligi turkiy aruzshunoslik temuriylar davrida o'zining tadrijiy takomiliga yetganligini ko'rsatadi [Yusupova 2020, 64].

Asar bugungi kungacha turk va o'zbek olimlaridan tashqari ko'plab rus va Yevropa olimlarining ham diqqatini tortgan, uning qo'lyozma nusxalari, tarkibi hamda risoladagi nazariy qonun-qoidalar haqida bir qator tadqiqot va maqolalar yaratilgan.

### **"Aruz risolasi"ning o'rganilishi**

Bobur risolasining o'rganilish tarixi shartli ravishda XVIII asrga borib taqaladi. Bu davrda boburiylar sulolasidan bo'lgan olim, shoir va tarjimon Mirza Alibaxt Azfariy (1760–1819) Boburning "Aruz risolasi"ni "Arizzoda" nomi bilan fors tiliga nazm va nasrda tarjima qiladi. Hozirda asarning 1836-yilda kotib Mahmudali Sa'id tomonidan ko'chirilgan nusxasi Madras davlat Sharq qo'lyozmalari kutubxonasida saqlanmoqda [Hasanov 1981, 7].

"Aruz risolasi" va uning qo'lyozmasi haqidagi ilk ma'lumot E.Bloshening "Parij Milliy kutubxonasidagi turkiy qo'lyozmalar katalogi"da uchraydi. Unda Boburning aruzga oid risolasi mazkur kutubxonada saqlanayotgani haqida xabar mavjud. Shuningdek, Fuod Ko'pruluzodanining «Turk tili va adabiyoti haqidagi tadqiqotlar» kitobida ham ushbu qo'lyozma nusxa haqida ma'lumot berilgan. Keyinchalik Bobur

risolasining hijriy 931, milodiy 1524/1525-yilda ko'chirilgan yana bir qo'lyozmasi Tehrondagi "Sultanat" kutubxonasida saqlanayotgani aniqlandi.

Uyg'ur adabiyotshunosi M.Hamroyevning 1969-yilda e'lon qilingan "Turk she'riyati nazariyasi ocherklari" kitobida Boburning "Aruz risolasi" qisqartirilib, uning uyg'ur yozuvidagi transliteratsiyasi ilova qilingan. Kitobda mazkur risolaning yana bir qo'lyozma nusxasi Sharqiy Turkistonning Kuchar shahrida saqlanayotgani to'g'risida ma'lumot berilgan [Xamrayev 1969].

O'zbek adabiyotshunosligida "Aruz risolasi" haqidagi dastlabki ma'lumot M.Shayxzodaning "Qo'shiqlar haqida" maqolasida keltirilgan. Shoir Moskva Bosh davlat kutubxonasida F.Ko'pruluzodanining kitobini ko'zdan kechirayotib, Boburning aruz ilmiga bag'ishlab risola yozganligi haqidagi ma'lumotni uchratadi va bu asar haqida mukammal va chuqur ilmiy tadqiqot o'tkazishni niyat qiladi. Ammo bevaqt o'lim tufayli uning bu niyati amalgalashmay qoladi.

1968-yilda H.Sulaymonov Alisher Navoiyning 525 yillik yubileyiga tayyorgarlik ko'rish munosabati bilan Angliya va Fransiyaga ilmiy safar qilib, "Aruz risolasi"ning Parij milliy kutubxonasida 1308 inv. raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozma nusxasining mikrofilmini olib keldi. Hozirgi kunda ushbu mikrofilm Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanmoqda [Bobur ensiklopediyasi 2014].

Risola o'zbek olimi S. Hasanov tomonidan maxsus o'rganilgan bo'lib, olim ushbu yirik tadqiqotni 1971-yilda "Muxtasar" nomi ostida fotofaksimile nusxasi va kirill alifbosidagi matni bilan nashr ettirdi. 1972-yilda esa "Boburning aruz risolasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Olimning Bobur aruzi bilan bog'liq qarashlari "Bobirning "Aruz risolasi" asari" nomli tadqiqotida batafsil bayon qilingan [Hasanov 1981]. Tadqiqotda Boburning ushbu risolasi Muhammad Samarqandiy tomonidan ko'chirilgan va Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan nusxa asosida tadqiq etiladi.

Rus sharqshunosi I.V.Stebleva 1972-yilda Zahiriddin Muhammad Boburning "Aruz risolasi"ni faksimile, so'z boshi va ko'rsatkichlari bilan Moskvada nashr ettirdi [Babur 1972]. U "Boburning she'rshunoslik (aruz)ga doir risolasidek parchalar" ("Извлечения из трактата Бабура по стихосложению" (арузу), 1970), "Zahiriddin Muhammad Boburning "Aruz risolasi"da taqt'i qoidalari haqida" ("О правилах скандирования в "Трактате об арузе" Захираддина Мухаммада Бабура", 1975), "Turkiy aruz nazariyasining zamonaviy talqini muammosiga doir" ("К проблеме современной интерпретации теории тюркского аруза", 1977) kabi tadqiqotlarida Bobur ijodi va aruz ilmining bilimdoni sifatida namoyon bo'ladi. Olma mazkur ishlarida "Aruz risolasi"dan parchalar e'lon qilish bilan birga aruzdagagi taqt'i qoidalariha ham to'xtalib o'tadi, Boburning risolasi Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asari bilan birgalikda tadqiq qiladi.

Boburning "Aruz risolasi" haqida U.To'ychiyev, A.Hojiahmedov, A.A'zamov, H.Boltaboyev, D.Yusupova kabi olimlar ham muayyan tarzda o'z mulohazalarini bildirib o'tganlar.

Bu yo'nalihsdagi ilk ilmiy tadqiqot A.Shcherbakning "Сочинение Бабура об арузе" maqolasi bo'lib, bu haqda quyida fikr yuritamiz.

**A. M. Shcherbak va uning "Boburning aruz haqidagi risolasi" ("Сочинение Бабура об арузе") tadqiqoti haqida**

Turkolog olim, filologiya fanlari doktori Aleksandr Mixaylovich Shcherbak 1926-yil 18-dekabrda Stavropol o'lkasining Turkman tumani, Letnyaya Stavka

qishlog'ida tug'ilgan. 1948-yilda Stavropol pedagogika institutining filologiya fakultetini tamomlagan. Ikkinci jahon urushi qatnashchisi sifatida 1944-1945-yillarda 3-Ukraina fronti qo'shinlari tarkibida bo'lgan. 1948-1951-yillarda sobiq Sho'ro Fanlar akademiyasining Tilshunoslik instituti aspiranturasida o'qib, 1951-yilda "O'g'uz afsonasi. Uyg'ur varianti" ("Сказание об Огузе. Уйгурский вариант") mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Shu yildan boshlab Rossiya FA Lingvistik tadqiqotlar instituti Sankt-Peterburg bo'limida faoliyat yuritgan va bosh ilmiy xodim darajasiga ko'tarilgan. 1968-yilda filologiya fanlari doktori dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Shcherbakning asosiy ilmiy ishlari turkiy tillar, xususan, o'zbek tili tarixini o'rganish, turkiy tillarni qiyosiy tadqiq etish va oltoyshunoslikka bag'ishlangan. Olim "К истории узбекского литературного языка древнего периода" (1953 й.), "К истории образования узбекского национального языка" (1954 й.) asarlarida Alisher Navoiy va Bobur asarlari tili uchun "chig'aitoy tili" o'rniغا "eski o'zbek tili", "eski o'zbek adabiy tili" atamalarini joriy etgan [Bobur ensiklopediyasi 2014].

A.Shcherbakning 80 dan ortiq tadqiqot va ilmiy maqolalari nashr etilgan. Olim «Qadimgi turkiy til lug'ati» («Древнетюркский словарь», М., 1969)ning tuzuvchi va muharrirlaridan biridir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Boburning aruz risolasi ilmiy jihatdan tavsif etilgan ilk tadqiqot A.Shcherbakning "Boburning aruz haqidagi risolasi" ("Сочинение Бабура об арузе") maqolasidir [Shcherbak 1969]<sup>75</sup>. Muallif garchi maqola saralavhasida uni "dastlabki xabar" deb atagan bo'lsa-da, lekin unda aruz bilimdonining jiddiy qarashlari kuzatiladi. Maqolada masalaga Bobur risolasiidagi kabi tadrijiylik asosida yondashuv ko'zga tashlanadi. Muallif dastlab risola va u haqdagi umumiy ma'lumotlarni keltirgach, ko'plab turkiy va forsiy ijodkorlarning she'rlaridan namunalar keltirilgani bois uni o'ziga xos antologiya deb atash mumkin deb hisoblaydi. A.Shcherbak o'z tadqiqotida nomlarini tilga olgan va muhim deb hisoblagan ushbu ijodkorlar ro'yxatini quyidagi jadvalda ko'rish mumkun (ijodkorlar nomi va ketma-ketligi A.Shcherbak maqolasi asosida ko'rsatildi):

T.r.	Ijodkorlar nomi	Risolada keltirilgan o'rinalar
1.	Navoiy	38a, 39a, 41a, 42a, 42b, 48b, 52a, 54a, 55b, 56a, 59b, 60a, 61a, 62a, 62b, 63a, 63b, 65b, 67b, 70b, 71a, 72 b, 77a, 77b, 81a, 84a, 85a, 90a, 93b, 94a, 95a, 95b, 96a, 96b...
2.	Jomiy	8b, 34a, 40b, 43a, 47b, 48a, 58b, 60a, 65a, 88a, 93b, 94a, 94b, 95a, 96a, 96b...
3.	Xusrav	33b, 50b, 58b, 59b...
4.	Nizomiy	105
5.	Hofiz	37a, 39a, 52a, 95a, 95b
6.	Ro'dakiy	28a
7.	Sa'diy	42b, 61a, 72b, 99a
8.	Lutfiy	39b, 100b, 111b, 122b, 151b, 169b
9.	Hiloliy	93a, 93b, 94b, 95b, 151b
10.	Iroqiy	61a
11.	Attor	63a

<sup>75</sup> Maqolaning bir oz o'zgartirilgan va qisqartirilgan varianti o'zbek tilida "Adabiy meros" jurnalining 1971-yil, 2-sonida e'lon qilingan.

12.	Hasan	94a, 94b, 95a, 96a, 99b, 109b
13.	Xayoliy	39b
14.	Shohiy	43a, 78a, 88a, 93a, 94a, 99b, 100b, 107a
15.	Binoiy	107a, 151a
16.	Kotibiy	81a, 107a
17.	Shohrux	41a
18.	Vahid Tabriziy	33b
19.	Solih	160a
20.	Mahviy	39b
21.	Salmon	8a, 59a, 67b, 106b
22.	Boysunqur Mirzo	41a, 130a
23.	Osafiy	60a, 159b
24.	Anvariy	87a
25.	Taroziy	59b
26.	Zuhuriy	165a
27.	Xoqoniy	167a
28.	Toriy	71a, 72a, 144b
29.	Haydar Xorazmiy	165a
30.	Riyoziy Samarcandiy	27b, 151a
31.	Ismat	31a, 64a, 159b
32.	Kamol	27b, 81a, 100a, 100b
33.	Orifiy	96b
34.	Sulton Husayn Mirzo	129b
35.	Sulton Mahmudxon	72a, 129b
36.	Orif Farg'oniy	77b, 148a

Tadqiqotda Bobur risolasining nomlanishi bilan bog'liq fikrlar ham muhim ahamiyat kasb etadi: "Bobur risolasining nomini biz ham M.F.Ko'pruluzoda kabi "Risolai aruz" deb ataymiz. Maxsus adabiyotlarda "Muxtasar fil aruz" degan boshqa nom bilan yuritiladi. "Bobirnomma"ning ilovalarida yuqorida aytib o'tilganidek "Mufassal" degan uchinchchi nomi ham uchraydi" [Shcherbak 1971, 285].

Keyingi o'rirlarda A.Shcherbak risolani Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asari bilan qiyoslaydi: umumiy va farqli jihatlarga to'xtaladi, Bobur risolasining hajman va mohiyatan kengligiga e'tibor qaratadi, qamrab olingan masalalar ko'lamenti tahlil qiladi.

Maqolada aruz ilmidagi nisbatan murakkab soha – zihof masalasining bataysil izohi uning ilmiy qimmatini oshirgan: muallif Bobur risolasida keltirilgan zihoflarni noma-nom sanab, ularning tavsifini keltirar ekan, zihoflarning bayt tarkibida (misra boshi, o'rtasi va oxirida) kelishiga qarab, nomlari o'zgarishi mumkinligini qayd etadi. Masalan, *xarm* zihofi haqida gapirar ekan, uning misra boshiga xosligini, agar misraning boshqa o'rirlarida (o'rtasi yoki oxirida) kelsa, *tahniq* deb atalishini ta'kidlaydi [Shcherbak 1969, 162]. Lekin zihoflardagi murakkablik Shcherbakni ham ba'zi o'rirlarda noto'g'ri xulosalarga olib kelgan: muallif zihoflar tavsifining so'ngida keltirilgan *xazm* istilohini 44-zihof sifatida talqin qiladi. Aslida *xazm* bu baytning boshida bir yoki bir necha harfning orttirilishi bo'lib, ma'nio uchun xizmat qiladigan, lekin taqti'da hisobga olinmaydigan o'zgarish (*illat*)lardan hisoblanadi. Bobur uning rukn va juzylarga hech qanday aloqasi yo'qligini va arab aruziga xosligini aytadi. Atoulohu Husayniyning Shams Qays Roziyga tayanib aytgan fikriga ko'ra esa, *xazmni* qadimgi arab shoirlari o'z she'rlarida qo'llaganlar va "...hozirg'i arab-u ajam shoirlari

buni ishlatmasliklari keraktur, chunki andin she'r zavqig'a xalal yetkay va tab' andin nafrat etkay" [Husayniy 1981, 18].

Shcherbak zihoflarning umumiy tavsifidan so'ng asliy ruknlarning zihoflari va furu'lariiga to'xtaladi, ularning umumiy sonini Boburga tayanib, 96 ta deb belgilaydi.

Olim o'z tadqiqotida X.Usmonovning "aruz turkiy xalqlar uchun begona tizim emas, u turkiy xalqlar adabiyotida arab poetikasiga bog'liq bo'limgan holatda rivojlangan" degan fikriga manfiy munosabat bildirar ekan, F.Ko'pruluzodaning "turkiy tillarning qurilishi (strukturasi) arablarga xos bo'lgan kvantitativ she'r tuzilishiga batamom yotdir" degan fikrini qo'llab-quvvatlaydi. Biz bu bahsli masalaga F.Ko'pruluzoda va A.Shcherbakning umumiy qarashlarini keskin inkor qilmagan holda, masalaga boshqa aruzshunos olimlar: X.Usmonov, I.Stebleva, U.To'ychiev va A.Hojiahmedovlarning "Devonu lug'otit turk"dagi she'riy parchalar misolida aytgan fikrlari asosida yondashishga harakat qilamiz. Xususan, I.V.Stebleva "Devon"dagi she'rlarda aruz bor deb hisoblaydi va she'riy parchalarning aruzga mos keluvchi taqt'i (paradigmasi)ni keltiradi [Stebleva 1971, 21]. Aruzshunos olim U.To'ychiev "Devon"da aruz mavjudligi masalasiga ijobiy munosabat bildirib, shunday deydi: "Biz "Devon"da aruz mavjud degan avval aytilgan fikrlarga qo'shilamiz, chunki "Devon" XI asr obidasi va aruz bu davrda yozma adabiyotda to'la hukm surar edi. Qolaversa, aruzga hamohang bo'lgan she'riy bayt va to'rtliklar xalq maqol va topishmoqlari ichida ham ko'p topiladi" [To'ychiyev 1985, 155]. A.Hojiahmedov esa "Devon"dagi 224 ta she'riy parchaning vazn xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida mazkur she'riy parchalarning aruzdagi - V --, V - V -, - V V -, V V --, V ---, - V -, V -- turoqlariga mos keluvchi o'lchovda yaratilganligini aniqladi. Olimning fikricha, "...qadimgi turkiy she'riy o'lchov tizimi cho'ziq va qisqa hijolarning muayyan erkinlik bilan takrorlanishiga asoslangan" [Hojiahmedov 2006, 10]. Bizningcha ham, "Devon"dagi she'riy parchalar aruzga mos keluvchi she'riy sistemada yozilgan bo'lib, cho'ziq va qisqa bo'g'inlar orasidagi mutanosiblik aruz vazni talablariga mos keladi. "...Qadimgi turk she'rlaridayoq vaznda bo'g'lnarning ochiq-yopiqligini rioya qilish hollari uchrab turadi. Bu esa aruz vazni prinsiplaridan biridir" [Rustamov 1972, 4].

A.Shcherbakning tadqiqotida bahrlar va doiralarning vujudga kelish usullari ham asosan Bobur talqini asosida tushuntirilgan: asliy ruknlar va ularning turli zihoflaridan bahrlar hosil bo'ladi va ularning umumiy miqdori 19 ta, *Tavil* doirasidan yana ikki bahr: *Ariz* va *Amiq* hosil qilinadi; doiralarni ikki guruhga: bir xil asliy ruknlardan yasaluvchi bahrlar doiralari va turli ruknlardan hosil bo'luvchi bahrlar doiralariga ajratib tasnif qilish mumkin. Shu tariqa maqolada taqt'i qoidalari, bahrlardan hosib bo'luvchi vaznlar va ularning qo'llanilish darajasiga ham to'xtalib o'tilgan.

A.Shcherbak Bobur risolasida keltirilgan poetik janrlarga xos vaznlarga ham munosabat bildirar ekan, ruboiy, masnaviy, tuyuq va uning turlari; poetik janrlar: surudi tarxoniy, elik, qo'shiq, o'lan va boshqalarning xalq ijodi va xonlar majlislaridagi o'rniga e'tibor qaratadi.

## Xulosa

A.Shcherbakning "Sochinenie Babura ob aruze" maqolasi adabiyotshunoslida "Aruz risolasi" ilmiy jihatdan tavsif etilgan ilk tadqiqot bo'lib, unda olim tadrijiylik asosida dastlab zihof, rukn, furu', so'ngra bahr, doiralar masalasiga to'xtlib o'tadi. Garchi unda ayrim chalkashliklar kuzatilib, ba'zi bahsli masalalar ham o'rtaga

tashlangan bo'lsa-da, ushbu maqola orqali A.Shcherbakning tilshunos va lug'atshunos olim bo'lish bilan birga, mumtoz poetikaning muhim tarmog'i bo'lgan aruz ilmi bo'yicha ham muayyan bilim va malakaga ega olim ekanligini kuzatish mumkin bo'ladi.

### **Adabiyotlar**

- Алишер Навоий. 2000. *Мезон ул-авзон*. МАТ. 20 томлик. Т. 16. Тошкент: Фан.
- Атоуллоҳ Ҳусайнин. 1981. Бадойиъу-с-санойиъ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. Тошкент.
- Аъзамов Абдулла. 2006. *Аруз: Алишер Навоий ва Заҳириддин Муҳаммад Бобур сабоқлари*. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси.
- Болтабоев Ҳ. 2004. *Рисолаи аruz ва аruz ҳақида* // Мумтоз сўз қадри. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Бобир Заҳириддин. 1971. *Мухтасар*. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. Тошкент.
- Захираддин Мухаммад Бабур. 1972. *Трактат об арузе*. Факсимиле рукописи. Изд. текста, вступит. статья и указатели И.В.Стеблевой. Москва.
- Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. 2014. Тошкент: Шарқ.
- Рустамов А. 1972. *Аруз ҳақида сұхбатлар*. Тошкент: Фан.
- Стеблева И.В. 1964. "О проникновении арабо-персидских метров в тюрко-язычную поэзию". *Проблемы теории литературы и эстетики в странах Востока*, 288– 299. Москва: Наука.
- Стеблева И.В. 2012. *Тюркская поэтика: этапы развития: VIII-XX вв.* Москва: Восточная литература.
- Тўйчиев У. 1973. *Арузшуносликка доир*. Тошкент: Фан.
- Тўйчиева Г. 2018. *Ислом даври шеъриятида аruz тизими ва унинг эволюцион тараққиёти*. Филол. фан. бўйича док. (Dsc) дисс... Тошкент.
- Усманов Х.К. 1968. "К характеристику ритмического строя тюркского стиха". *Народы Азии и Африки* 6.
- Ҳамраев М.К. 1969. *Очерки теории тюркского стиха*. Алма-Ата.
- Щербак А. 1969. "Сочинение Бабура об арузе". *Народы Азии и Африки* 5: 156-168. Москва.
- Шчербак А.М. 1971. "Бобирнинг аruz ҳақидаги рисоласи ва унинг Навоий ижодини ўрганишдаги аҳамияти". *Адабий мерос* 2: 284-287. Тошкент.
- Ҳасанов С. 1981. *Бобирнинг "Аруз рисоласи" асари*. Тошкент.
- Yusupova D. 2020. "Poetry meters (bahrs), concentric circles (doirs) and the sizes of rubai in the aruz studies of the temurids' period". *International Journal of Psychosocial Rehabilitation* 24 (08): 6409-6421.
- Юсупова Д. 2020. "Роль трактата об арузе Бабура в развитии арузоведения в темуридский период". *Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современность (международная научно-практическая конференция)*. Москва.
- Юсупова Д. 2022. «Арузоведение Тимуридского периода: Захириддин Мухаммад Бабур и его «Трактат об арузе». *Polish science journal* 4 (49): 205-209. Warsaw, Poland: Wydawnictwo Naukowe "Iscience".
- Хожиаҳмедов А. 2006. *Навоий арузи нағосати*. Тошкент: Фан.

<b>Abdurrahman GÜZEL, Ali Fuat BILKAN.</b> Babürlü Kuzey Hindistanında Ali Şîr Nevâyî Tesiri	129
<b>Almaz ÜLVİ (BİNNATOVA).</b> İki qüdrətli şah – iki şöhrətli şair ( <i>Şah Ismayil Xətai-566 və Zahirəddin Məhəmməd Babur-540</i> )	135
<b>Jaloliddin JO'RAYEV, Gulsanam XOLIQULOVA.</b> Abulvajd Forig'iy va uning adabiy merosi	137
<b>Sebahat DENİZ.</b> Büyük Türk Hakanı Babür'ün ve Neslinin Türk Edebiyatının Gelişmesindeki Rolü	147
<b>Ilyos ISMOILOV.</b> "Boburnoma"da shuaro zikri	148
<b>Nodira ALLAMBERGENOVA.</b> Komron Mirzo – Bobur she'riyatining munosib vorisi	152
<b>PANEL III. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARINING ADABIY-ESTETIK, ANTROPOLOGIK VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI</b>	
<b>PANEL III. THE LITERARY, AESTHETIC, ANTHROPOLOGICAL, AND LINGUACULTURAL CHARACTERISTICS OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR'S WORKS</b>	
<b>Qosimjon SODIQOV.</b> Boburning til bilimi borasidagi qarashlari	157
<b>Tanju Oral SEYHAN.</b> Babur Şah ve Kültür Politikasında Türk Dili ve Edebiyatının Yeri	169
<b>Farhad RAHIMI.</b> Çağatay Sözlüklerinde Bābür Şah Tanıkları Üzerine	182
<b>Ziyodaxon TESHABOYEVA.</b> Tibbiyot terminlarining "Boburnoma"da aks etishi va ingлизча tarjimalari	197
<b>Süveyda ŞAHİN, Nergis BİRAY.</b> Babur Divanında Geçen Organ Adlerıyla Yapılmış Deyimler	206
<b>Muqaddas ABDURAHMONOVA.</b> Omonimiya – turkiy tillarga xos semantik imkoniyat sifatida	214
<b>Alisher MAMAJONOV, Abduvohid ALISHEROV.</b> Bobur ma'naviy-axloqiy ruhiyati – yoshlarga ibrat	219
<b>Tohir TURDIBOYEV.</b> Bobur g'azallaridagi bog'lovchilarning pleonastik xususiyati	225
<b>Sayyora SHODMONOVA.</b> "Boburnoma"dagi vaqt o'lchov birliklari leksemalarining ingлизча tarjimalarda qayta tiklanishi	228
<b>IV SHO'BA. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SHE'RIYATINING O'RTA ASRLAR VA ZAMONAVIY ADABIY JARAYON TAKOMILIDAGI O'RNI</b>	
<b>PANEL IV. THE ROLE OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR'S POETRY IN THE DEVELOPMENT OF MEDIEVAL AND MODERN LITERATURE</b>	
<b>Bilâl YÜCEL.</b> Zahîrüddin Muhammed Babur'un Rubaisindeki Matematik Sanatı	238
<b>Nusratullo JUMAXO'JA.</b> Bobur forsiy she'rularining badiiyati	247
<b>Mehmet SARİKÖSE.</b> Babür Divani'nda Şahsiyetler	254
<b>Iqboloy ADIZOVA.</b> Bobur ijodida kichik masnaviy janri	265